



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылды 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2024

октябрь

Шөлкемлестириүшилдер:

**Карақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ӨЗПИИИ Карақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Алима МАТКАРИМОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Дилшодхұјжа АЙТБАЕВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Мариғжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Норим РАХМАНОВ
Фарҳад БАБАШЕВ	Мұқаддас РАХМАНОВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Дурдана РАХМАТУЛЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Шахло БОТИРОВА	Феруза САПАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Нурзода ТОШЕВА
Мұхтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Саодат ТОШТЕМИРОВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Шохида ИСТАМОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Умида ИБРАГИМОВА	Амангелди КАМАЛОВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ризамат ШОДИЕВ
Джавдод ПҮЛАТОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Пердебай НАЖИМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Аскарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЙОСУПОВ



Abdurasulov J. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik faninining bugungi kundagi pedagogik va psixologik dolzarbligi	191
Ozodqulov O.B. Ta’lim muassasalari rahbarlarining samarali boshqaruva faoliyatida sog‘lom va ijodiy muhitni rivojlantirish omillarining kognitiv tahlili	196
Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta’limni uzluksizligi ta’minalash va uni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning nazariy jihatlari	201
Turakulov B.N. Ekopsoxologik kreativ qobiliyatini rivojlantirishning psixologik omillari	206
Vafoyeva G.B. Pedagogik jamoada sog‘lom muhitni shakllantirish va rivojlantirishning afzalliklari	210
Burxanova M.B. Muomala odobi – axloqiy va muomala madaniyatning muhim elementi sifatida	214
Raxmanova D.U. Talabalarning intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari	220
Abduqodirova D.E. Talabalarda emotsiyal kreativlik sifatlarini rivojlantirish	224
Xurramov K.M. Personalni korporativ boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari	230
Kadirova X.A. Jadid adabiyoti namondayalarining ta’lim tarbiyaga oid asarlaridan samarali foydalanimish	235
Janbayeva M.S. Interfaol metodlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy mobilligini shakllantirish	241
Temirbekova A.O., Yusupbayeva L. Inklyuziv ta’lim sharoitida ona tili o‘qitishning innovatsion pedagogik usullari	248
Rustamov B.X. Falsafa kategoriyalari asosida pedagoglarning prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi	253
Qazoqova D.Q. Umumta’limda biologiyani vitagenlashtirilgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishni takomillashtirish metodikasi	257
Abduvaliyev N.A. “Tarbiya” fanini o‘qitishda kundalik-amaliy topshiriqlarning pedagogik zarurati:tajriba va zamonaviy yondashuvlar	264
Usmonova D. O‘quvchilarda bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish	274
Abduvaliyev N.A. Kundalik-amaliy topshiriqlar va uning o‘quvchilar kognitiv mustaqilligini rivojlanishdagi ahamiyati	280
Turdiyeva Sh.A., Toshlanova M. Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik jihatlari	290
Абдуллаев А.А. Халқ ўйинлари узлуксиз таълимда жараёнида	297
Abdullahayev E.Z. Bo‘lajak o‘qituvchilarini sun‘iy intellekt vositasida o‘quvchilarini tadqiqotchiлик faoliyatini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash	302
Narimbaeva L.K., Musaeva G.M. Katta maktabgacha yoshdagи bolalarning muloqot xususiyatlari	309
Xamrayeva A.F. Talabalarda o‘ziga ishonch tuyg‘usini shakllantirishning psixologik determinantlari	316
Ўролбоева Д.С. Педагог тарбиячиларда компетентликни ривожлантириш	321
To‘lanova M.M. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy deformarsiya psixodiagnostikasi va psixokorreksiysi masalasi	328
Sayfiyeva Y.O., Fayzullayev R.X. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini baholash	333
Бегимкулов X. III. Рақамлаштириш муҳитида педагогнинг ахборот компетентлиги мазмуни ва ривожлантириш шумомлари	338
Холмухamedов Т.М. Техникум талabalarinining кўникмаларни ривожлантириша шахса йўналтирилган таъlimни амалга оширишнинг аҳамияти	344
Djumaniyazov I.I. Tarixni o‘qitish jarayonida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish texnologiyasi	349



MUOMALA ODOBI – AXLOQIY VA MUOMALA MADANIYATNING MUHIM ELEMENTI SIFATIDA

Burxanova M.B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: muomala, madaniyat, bilim, ko'nikma, malaka, shirinso'z, odob, ma'naviy-axloq, oila, suhbat, muloqot, munosabat..

Ключевые слова: обращение, культура, знания, умение, компетентность, милость, манеры, мораль, семья, разговор, общение, отношение.

Key words: behavior, manners, conversation, communication, attitude, knowledge, skills, competence.

Резюме:

Muomala odobi-axloqiy va muomala madaniyatining muhim elementi sifatida tahlil qilingan. Unda asosiy e'tibor muomala odobining xususiyatlariga qaratilgan. Muallif maskur masalada o'z yondashuvlarini taqdim qilgan.

Резюме:

Поведенческий этикет анализируется как важный элемент морально-поведенческой культуры. В ней основное внимание сосредоточено на особенностях этикета. Автор изложил свой подход к проблеме.

Summary:

Behavioral etiquette is analyzed as an important element of moral and behavioral culture. In it, the main attention is focused on the characteristics of etiquette. The author has presented his approach to the issue.

Oiladagi tarbiyaviy jarayon o'ziga xos xususiyatga ega. Uni oxiri va boshi yo'q. Biz bolani tug'ilgandan boshlab tarbiyalaymiz. Bola ota-onasining hattiharakatlarini taqlid qilish orqali o'rganadi, hatto og'zidan nima chiqsa o'shani qaytaradi. Demak, ota-ona bola shaxsini shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo'lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-ona o'rtasidagi doimiy muloqot, hamda ular o'rtasidagi muomala madaniyatidir.

Muomala madaniyati insonning butun hayoti va faoliyati davomida tarbiyalanadigan jarayon bo'lib, u oilada, jamiyatda, jamoada shakllanadi. Muomala madaniyati insonning ijodiy kuchi va aqliy qobiliyati, tafakkur salohiyati va dunyoqarashining muayyan darajasi hisoblanadi[1]. Muomalaning



“madaniyat” atamasi bilan bog‘liqligi ham uning ma‘naviy hayot sohasiga daxldorligidadir. Zero, har bir xalq o‘ziga xos madaniyat yaratadi va shu madaniyat tufayli o‘zligini anglaydi, jahon taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

“Muomala” so‘zi zamirida butun insoniyat taqdiri mujassam ekanligini e‘tirof etgan adabiyotshunos olim N.Bekmirzaev muomala va shirinso‘zlikning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati, qimmatiga doir qiziqarli ma‘lumotlarni keltiradi. “Har bir odam o‘zining shaklushamoyil go‘zalligiga vaqt va pul sarflash hisobiga erishadi. Agar odamlardagi shakl go‘zalligiga ma‘naviy-axloqiy go‘zallik, muomala madaniyati ham qo‘shilsa bormi, nur ustiga a‘lo nur bo‘lardi. Bundaylarni komillikka intilish yo‘lidan borib, odamlarga shirin so‘zlar bilan ruhiy madad beradiganlar safiga kiritish lozim” deydi.

Oila tarbiyasida chiroli va ma‘noli, beg‘araz in=sonlarga qarashni shakllantirish va rivojlantirishga, har qanday muammo, kayfiyat yomon bo‘lishiga qaramasdan, boshqalarga o‘qrayib, yomon qaramaslikka o‘rgatishga katta ahamiyat berish zarur. M.Umarova «O‘zbek milliy oilala=riga xos bo‘lgan muomala madaniyati, oilaviy an‘analar, udum, rasm-rusumlar o‘sib kelayotgan avlod ongiga tushun=chalar, aniq bilimlar, anglangan munosabatlar tarzida singdirilsa, ular o‘smirda oilaviy qadriyatlarga nisba=tan mutanosib ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi=da muhim rol o‘ynaydi».

Muomala madaniyati oila sharoitida ota-onva farzandlar o‘rtasidagi eng muhim aloqa, o‘zaro axborot almashish, hissiy kechinmalarni bayon qilish vositasi sanaladi. Oila a‘zolarining barcha munosabatlari bevosita yoki bilvosita muomala yordamida amalga oshiriladi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan esa ota-onva farzandlar munosabatida muomala madaniyati katta tarbiyaviy ta‘sirga ega. Shu sababli ota-onva farzandlar, umuman olganda, oilaning barcha a‘zolari o‘rtasida tashkil etiladigan muomalaning ijobiy ahamiyat kasb etishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratish zarur. Bu borada asosiy mas‘uliyat shubhasiz ota-onaning zimmasiga yuklatiladi. Ota-onalarning o‘zlar samarali muomala qilish uslublarini o‘zlashtirgan holda farzandlarga ham shaxslararo munosabatlar jarayonida ushbu vositadan o‘rinli, maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini tarbiyalab borishlari lozim.

A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “..tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi” [2].



Darhaqiqat, chiroyli muomalaning qudrati inson bilimi bilan ham belgilanadi. Zero, oqilonalik so‘z, nutq bevosita tafakkur mahsuli, tafakkur esa bilimsiz vujudga kelmaydi. Shu bois, bilimsizlik o‘zaro muomalada, insonlararo munosabatda pand berib qo‘yishi, aksincha, oqil kishining tili so‘zda erkli, mushohadali bo‘lib, ko‘plarga naf keltirganligi haqida pandnomalarda bitilgan.

Aytish mumkinki, muomala psixologik jarayon sifatida tugal natijani ob‘ektiv ehtiyojlar, aniq manfaatlar, tuzilmalar, vositalar muomala texnikasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. U paydo bo‘lgandan boshlab ilmiy tavsiflanadigan qator daraja va bosqichlardan o‘tib kelgan. Rus psixologlari L.S.Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin, A. V.Zaporojets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muomalaga nisbatan ehtiyojdir.A.V.Zaporojets va M.I. Lisinalar tadqiqotlarida ta‘kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muomalaga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e‘tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo‘ladi;
- 2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug‘iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug‘iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi [3].

Bundan tashqari tinglash madaniyatini shakllantirish ayni paytda qiyin kechayapti. Agarda bola o‘z ota-onasini tinglay olsa va aytganlariga amal qilsa uning tarbiyasi yomon bo‘lishi mumkin emas. Bolaga salomlashish odobidan tortib tinglash madaniyatigacha o‘rgatmasak keyin bu qusurni to‘g‘irilash bir muncha qiyin kechadi. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e‘tiborli bo‘lish lozim.

Oilada ota-onalar bolalar bilan muomala jarayonida muntazam tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish metodlari bilan ishlaydi. Masalan: biror-bir voqeа, hodisaning mohiyatini tushuntirishda, bolaga u tomonidan sodir etilgan biror-bir noto‘g‘ri xatti-harakat uchun dashnom berishda.

Bolalar hurmat qilinadigan oilalar. Bunday oilalarda bolalarga hurmat bilan yondashiladi, ularga mehr-muhabbat ko‘rsatiladi .

Rahmdil oilalar. Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘rtacha darajada ijobiliylik kasb etadi. Ota-onalar farzandlarning qiziqish va ehtiyojlaridan xabardor bo‘lishadi. Shu bilan birga farzandlar o‘zlarining muammolarini ota-onalari bilan muhokama qilishadi.

Iqtisodiy yo‘nalgan oilalar. Bu kabi oilalarda asosiy e‘tibor oilaning iqtisodiy ta‘minlanganligiga qaratiladi. Ota-onalari va bolalarning ma‘naviy dunyosi



qashshoq. Oilaviy munosabatlarda bolalarning qiziqishlari hisobga olinmaydi, faqat “foydali” tashabbuslari qo’llab-quvvatlanadi.

Adovatli oilalar. Farzandlar uchun oila – ular yoqtirmaydigan maskan. Farzandlar bir-birlari bilan ahil emas, shu bilan birga ota-onalariga yomon munosabatda bo‘lishadi. Oilada farzandlar o‘zaro hamda tengdoshlari bilan hamjihat bo‘la olishmaydi. Ta’lim muassasasiga nisbatan salbiy munosabat shakllangan. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar shunday mexanizmga asoslangan: farzandlarning xulq-atvori, hayotiy qarashlari oilada ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi, munosabatlar jarayonida hamisha ota-onalar haq bo‘ladi, aynan shu holat, bir tomondan, farzandlarning o‘qishlariga ziyon yetkazsa, ikkinchi tomondan, ularning amoral xulq-atvorga ega bo‘lishlariga sabab bo‘ladi.

Notinch, baxtsiz oilalar. Ota-onalar hamda farzandlarning ijtimoiy moslashuv imkoniyatlari nihoyatda past. Shu sababli bunday oilalarda bolalarni tarbiyalash jarayoni juda qiyinchilik bilan sekin boradi, ustiga ustak kam holatlarda kutilgan natijaga erishiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy muhit bolalar psixikasining taraqqiy etishiga faol ta’sir etadigan muhim omillardan biridir. Shuningdek bolaning psixik taraqqiyotida ta’lim va ta’rbiya ham juda katta ahamiyatga ega omillardan biridir. Shuningdek, bolaning psixik taraqqiyotida birinchi navbatda irsiyat va tashqi muhit ta’sir etsa, ikkinchi navbatda bolaga uzoq muddatga sistemali ravishda beriladigan ta’lim va tarbiya kuchli ta’sir etadi [4].

Bolaning his-tuyg‘ulari va hissiyotlari sohasining rivojlanishi oiladagi muomala tajribasiga bog‘liq. Oila a’zolari o‘rtasidagi hissiy aloqalarning buzilishi bolaning munosabatlar normalari va axloqiy pozitsiyalarini egallashiga to‘sqinlik qiladi.

Shuningdek, muomala hamkorlik faoliyatining muhim omili ekanini alohida ta’kidlash lozim. Muomalaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalardagi hamkorligi ikkala tomonning manfaatiga asoslanadi. Shunday bo‘lgan taqdirdagina, muloqot samarali yakunlanishi mumkin.

Ma’lumki, axloqiy madaniyatning eng muhim elementlaridan biri muomala odobidir. Muomala odobi bizning fikrimizcha, 3 ta jihatni o‘z ichiga oladi:

- 1) salom berish va salomga javob berish odobi;
- 2) suhbatlashish odobi;
- 3) nigoh, ya’ni insoniy qarash odobi.

Muomala salomlashishdan boshlanib, salom berish odobiga rioya etishni taqozo etadi. Bu xususda Husayn Voiz Koshifiy shunday degan: «Agar salom berish odo-bi nechta deb so‘rasalar, yettita deb aytgil: birinchidan, salom



beruvchi kishi pok bo‘lishi kerak, ikkinchidan, suvoriy kishi yayov odamga salom bersin, uchinchidan, yoshi kichik odam yoshi ulug‘roqqa salom berish, to‘rtinchi, salom berayotgan odamning chehrasi ochiq va xursand bo‘lsin, beshinchi, ishora yoki imo (boshini qimirlatib, qo‘lini ko‘krakka qo‘yib) emas, balki ovoz chiqarib: «As salomu alayka» yoki «Salomu alayk» desin va agar jamoat bo‘lsa «As salomu alaykum» deb aytsin. Yettinchidan, ikki kishi birbiriga yaqinlashganda, qo‘l berib ko‘rishsin, bu odobga kiradi»[5].

Salomga javob berish odobi: ochiq chehra bilan xursand bo‘lib «Va alaykumu salom» (ma’nosи arabcha «sizga ham tinchlik bo‘lsin degani») deb javob berish, salom berganga rahmat aytish, salomga imo-ishora bi-lan emas, balandroq ovozda alik olish, salom bergen odam javobingizni eshitishi lozim, boshqa millat vakili o‘z tilida salom bersa shu tilda javob berish. Muomala, avvalo, so‘z, nutq vositasida amalga osha-di. Shuning uchun so‘zlash, suhbatlashish, boshqalarning so‘zini tinglay bilish muomala odobining muhim sharti hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, suhbat jarayonida muomala odobiga quyidagilarni kiritish mumkin: muloyimlik bilan, tabassum qilib, ochiq, samimi gapirish,

ovozi baland ko‘tarmasdan, ma’noli, foyda-li, har kimning qiziqishiga, ahvoliga, yoshiga munosib so‘zlarni gapirish, insonni masxara qiladigan, ichini og‘ritadigan kinoyali, g‘arazli so‘zlarni so‘zlamaslik, odamlarning gapini bo‘lmaslik, betgachoparlik qilmaslik, o‘ylab gapirish, ko‘p gapirmaslik, ya‘ni oz bo‘lsa ham, soz gapirish, ilmli, tajribali, hurmatli insonlar bilan suhbatlashish.

Muomala jamiyat, inson uchun za-rurat, ehtiyoj, usiz rivojlanish bo‘lmaydi. Muomala odobi oila a’zolarini bir-birini hurmatlashni, qadr-qimmatini joyiga qo‘yib, milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyat qoidalariga rioya etishni talab etadi.

Oila tarbiyasida muomala madaniyatini bolaning tili chiqayotgan paytdan nutqini shakllantirib, asta-sekin rivoj-lantirish lozim. Buning uchun bolani so‘zlarni to‘g‘ri ta-laffuz etishiga, ma’noli so‘zlarni bog‘lab gapirishiga va nutqi boy bo‘lishi uchun yoshiga mos kitoblar o‘qishga, o‘qigan kitobining ma’nosini gapirib berishiga, ijobjiy va salbiy obrazlarga mustaqil fikr bildirishiga kat-ta e’tibor berish, ya‘ni axloqiy tarbiyani aqliy tarbiya bilan bog‘lab olib borish lozim, ertaklar o‘qib berish, bola bilan ko‘proq suhbatlashish, bergen savollariga vazminlik bilan o‘ylab javob berish, bolaga yoshligidan nutq madaniyatini, suhbatlashish odobini o‘rgatish, so‘z boyligi boy bo‘lishi uchun kitoblar o‘qish, she‘rlar yod ol-dirish. Ma’lumki, inson qancha ko‘p she‘r yod olsa, uning xotirasi shuncha kuchli bo‘ladi.



Oiladagi tarbiyaviy jarayon o‘ziga xos xususiyatga ega. Uni oxiri va boshi yo‘q. Biz bolani tug‘ilgandan boshlab tarbiyalaymiz. Bola ota-onasining hatti-harakatlarini taqlid qilish orqali o‘rganadi, hatto og‘zidan nima chiqsa o‘shani qaytaradi. Demak, ota-onalara shaxsini shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo‘lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-onalara o‘rtasidagi doimiy muloqotdir. Bolani tarbiyasi yaxshi bo‘lishi uchun uni sevish kerak. Biz bola bilan muloqotga necha minut vaqt ajratamiz? SHuni o‘ylab ko‘rish kerak. 1 soat vaqt ajratsak, bu yaxshi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ota-onalara bola o‘rtasidagi muomala bir sutkada 1,8 soatni tashkil qilar ekan. Ona 35 minut muloqotda bo‘lar ekan: “qorning ochmi? Nima yeysan?” kabilalar tarzida. Bola savol bersa ayrim ota-onalar javob bergisi kelmaydi. Ona ovqat tayyorlash bilan ovora, ota gazeta o‘qish bilan. Turli yoshdagi farzandlarda u yoki bu muammo bo‘lishini biz kattalar bilishimiz, unga vaqt ajrata olishimiz kerak. Moddiy g‘amxo‘rlik bolaga, uning tarbiyasi uchun, muomala madaniyatini shakllanishi uchun yetarli emas. Bolani qalbiga qulq sola bilishimiz muhim. Ota-onalara o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqishining sabablaridan biri bolaga e’tibor bermasligidadir. Nima uchun biz hamkasblarimiz bilan, do’stlarimiz bilan qancha muloqotda bo‘lsak ham qoniqmaymiz, lekin farzandimiz bilan kam muloqotda bo‘lamiz? Ota-onaning e’tibori oilada hissiyot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Aksincha, farzandni tuyg‘ulari bilan hisoblashmaslik, uning fikrlarini tinglamaslik farzandni ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 1998.
2. Умарова М.М. Ўсмирларда оилавий қадриятлар тўғрисидаги тасаввурлар шакланишининг ижтимоий-психологик шарт-шароитлари: Дис..... Пси-хол. фан. номзоди: 19.00.05/ ЎзР Олий ва ўрга маҳсус таълим вазирлиги. М.Улуғбек номидаги ЎзМУ. – Т., 2004.
3. M.Maxsudova.”Muloqot psixologiyasi”. Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2006.
4. M.Norbosheva “Bolalar psixologiyasi”, Toshkent, 2002, 31-32 b.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. – Toshkent: 1994